

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

LINGVISTIKA

2024 Vol. 2 (1)

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir:	Hamidulla Dadaboyev
Bosh muharrir o'rinbosari:	Zulxumor Xolmanova
Mas'ul kotib:	Dilafruz Muhammadiyeva

Tahrir hay'ati

Baxtiyor Abdushukurov, Samixon Ashirboyev, Sulton Normamatov, Munavvara Qurbonova, Muhayyo Hakimova, Dilarabo Baxronova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmonova, Marhabo Umurzoqova, Manzura Shamsiyeva, Zilola Shukurova, Gavhar Komilova, Kamola Rixsiyeva, Iqbol O'razova, Muhabbat Madaminova, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Mushtariy Xolmurodova, Nodir Jo'raqo'ziyev.

Jurnal haqida ma'lumot

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

"Lingvistika" Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi "O'zbekiston: til va madaniyat" jurnalining tilshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta e'lon qilinadi. "Lingvistika" seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning lingvistika yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

"Lingvistika" seriyasi 2021-yil mart oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:	Hamidulla Dadaboev
Deputy Editor in Chief:	Zulkhumor Kholmanova
Executive secretary:	Dilafruz Muhammadiyeva

Editorial Committee

Bakhtiyor Abdushukurov, Samikhon Ashirbayev, Sultan Normamatov, Munavvara Kurbanova, Muhayyo Hakimova, Dilrabo Bakhronova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmanova, Marhabo Umurzakova, Manzura Shamsiyeva, Zilola Shukurova, Gavhar Komilova, Kamola Rikhsiyeva, Iqbol Urazova, Muhabbat Madaminova, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Mushtariy Kholmuradova, Nadir Jorakoziyev.

Journal information

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results. The authors' ideas may differ from those of the editors'.

“**Linguistics**” is a linguistic series of the journal “Uzbekistan: Language and Culture” which in the list of scientific publications of the High Attestation Commission, published four times a year. The “Linguistics” series publishes linguistic articles by professors, doctoral students, trainee researchers, independent researchers, and masters.

The “Linguistics” series was launched in March 2021.

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

Mundarija

Lingvistika

Shuhrat Hayitov

Bobur asarlarining filologik tadqiqi.....6

Kamola Rixsiyeva

Qa= asosli lingvistik birliklarning semantik to'r asosidagi tahlili19

O'razova Iqbol

Eski o'zbek tilidagi "holat" semali frazemalar tahlili (XIV asrning II yarmi manbalari asosida)28

Mamarajabova Iroda

Eski o'zbek turkiy tildagi vaqt konseptini ifodalovchi leksemalar taraqqiyoti42

Ma'suma Mo'minova

Suv komponentli frazemalarda milliy-madaniy belgilar ifodasi57

Israilova Saodat Turapovna, Dilnoza Jumanova

Diskurs va uning ilmiy talqini67

Zahro Abruyeva

Ijtimoiy muloqotga xos ayrim murojaat shakllarining lingvokognitiv tahlili75

Shaxlo Baxodirova

"O'tgan kunlar" romanidagi lakunar birliklar88

Zarnigor Davronova

Badiiy matnda antroponim va unga yondosh tushunchalarning lingvistik xususiyatlari (Abdulla Qodiriy ijodi asosida)100

Zarifa O'rinova

Aforizmlar – intertekstual birlik sifatida113

Saodat Israilova, Gulnoza Rayhonova

Tezauruslardagi shaxs otlarining paradigmaticasi125

Mirzayeva Go'zal

Dunyo va turk tilshunosligidagi neyrolingvistik tadqiqotlar xususida132

Azizova Nilufar

"Devoni lug'otit turk"dagi "oziq-ovqat" semali leksik birliklarni semantik maydon asosida tadqiq etish142

Content

Linguistics

Shukhrat Khaitov

A philologik study of Babur's works6

Kamola Rixsiyeva

Semantic web-based analysis of qa= based linguistic units19

Iqbol Urazova

Analysis of phrases with the term "state" in the old uzbek language
(Based on the sources of the second half of the 14th century)28

Mamarajabova Iroda

Development of lexemes with the concept of time in the straotürkic
language42

Ma'suma Mo'minova

Expression of national – cultural signs in phrases with a water
component57

Israilova Saodat Turapovna, Jumanova Dilnoza

Discourse and its scientific interpretation67

Zakhro Abrueva

Linguistic-cognitive analysis of social communication forms of
address75

Shaxlo Baxodirova

Lacunar units in the novel "O'tgan kunlar"88

Zarnigor Davronova

Linguistic features of anthroponym and related concepts in literary text
(based on the works of Abdullah Qadiri)100

Zarifa O'rinova

Aphorisms – as an intertextual unit113

Saodat Israilova, Gulnoza Rayhonova

Paradigmatics of personal nouns in thesauruses125

Go'zal Mirzayeva

About neurolinguistic research in world and Turkish linguistics132

Nilufar Azizova

Studying the lexical units of "food" in the "Devoni lugotit turk" based on
the semantic field142

Suv komponentli frazemalarda milliy-madaniy belgilar ifodasi

Ma'suma Mo'minova¹

Abstrakt

Ushbu maqolada folkloristik, badiiy va lingvistik qarashlarning lingvokulturologik tadqiqotlarga manba bo'lib xizmat qilishi, suv komponentli frazemalar, maqollar va matallar xalq psixologiyasi va falsafasini ifodalovchi, xalq hayoti izlarini saqlovchi, nafaqat turmush tarzi, balki xalqning o'tmishi, udumlari, e'tiqodini aks ettiruvchi birlik ekanligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *Lingvokulturologik, frazema, frazeologik birlikma, semantik, paremiya, grammatik shakl, madaniy kod, ibora.*

Kirish

Barqaror birikmalar dunyo tilshunosligida paremiologik fond tarkibida o'rganilgan. G.L.Permyakovning folkloristik, badiiy va lingvistik qarashlarni jamlagan izlanishlari lingvokulturologik tadqiqotlarga manba bo'lib xizmat qildi. Ushbu tadqiqotlarda maqol va matallar xalq psixologiyasi va falsafasini ifodalovchi, xalq hayoti izlarini saqlovchi, nafaqat turmush, balki xalqning o'tmishi, udumlari, e'tiqodini aks ettiruvchi paremiologik birlik sifatida o'rganildi. G.L.Permyakov paremiyaning kengroq tushuncha ekanligini ta'kidlab, unga gap ko'rinishidagi xalq hikmatlarini (masalan, maqol, matal, alomatlar) yoki qisqa hikoyachalarni (masalan, qiziqarli hikoyacha, latifa, topishmoq)larni kiritadi (Пермяков 1970, 33).

Adabiyotlar tavsifi

Hozirgi paytda rus tilshunosligida lingvokulturologik sathda rus tilidagi paremiyalarni boshqa tillarga qiyosan o'rganishga bag'ishlangan ko'plab ishlar mavjud (V.Pikalova, 24; E.Abisheva, 20; J.Apekova, 94 va boshqalar). (V.V.Jdanova, 160) tadqiqoti rus paremiyalarining monografik plandagi lingvokulturologik tadqiqiga bag'ishlangan.

O'zbek paremiologik olam manzarasi o'zbek xalqining ko'p

¹ Mo'minova Ma'suma – Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi.

E-pochta: masumamuminova@gmail.com

ORCID-ID: 0009-0003-2111-0460

Iqtibos uchun: Mo'minova M. Suv komponentli frazemalarda milliy-madaniy belgilar ifodasi. *O'zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika.* 2024-2: 57-66.

qirrali ma'naviy olamini tasvirlab beradi. Paremiyalar yordamida millat qadriyatlari va an'analari, hayot va turmush, insoniy hislar va qarashlar, jamiyat qonunlari va tartiblari, inson tabiati va odatlari haqida jamoaviy fikrni ifodalaydi. Ularda xalq tafakkuri va g'oyalari asosidagi millat orzusidagi "to'g'ri hayot kechirish" tavsiyalari mujassam.

Metod va metodologiyasi

Tadqiqot mavzusini yoritishda analiz, sintez, tizimli tahlil, komponent tahlil, qiyosiy, tavsifiy, tasnifiy, statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

So'z birikmalarida erkin birikuvlarning asosiy belgisi komponentlarning erkin almashinuvi bilan izohlanadi: *sovuq suv*, *tiniq suv*, *sho'r suv*, *suv oqimi*. Bunda so'zlarni o'zaro bog'lashga xizmat qiluvchi grammatik shakllar ham o'zgaruvchan xarakterga ega bo'ladi. *Suv* leksemasining erkin birikmalari strukturasi va modelini quyidagi jadval asosida tahlil qilamiz:

1-jadval. *Suv* leksemasining erkin birikmalar strukturasi

№	<i>Suv</i> leksemasi ishtirokidagi matnlar	<i>Suv</i> bilan birikma hosil qilgan leksemalar	<i>Suv</i> komponentli birikma modellari
1.	Ovoz anhordan, suv ning ichidan kelayotgan edi (QS,173).	ichi	suv+ning+ot
2.	Ariqdagi suv shildiramaydi. Go'yo ko'kmak o'tlar qilvir qo'llari bilan suv ni jilovlab, bo'g'ziga chang urganlar (D, 2).	Shildiramoq, jilovlamoq	suv+fe'l suv+ni+fe'l
3.	Tilla zarralari hatto ummon suv larida ham bor (D, 7).	bor	suv+da +modal so'z
4.	To'r tayyor bo'lgach, Zokirali bilan Kamolxo'ja daryoga tushdi. To'rni suv ga tashlab, ikkovi ikki tomondan tortganicha asta yura boshlashdi (D, 15).	tashlamoq	suv+ga +fe'l
5.	Daryo suvi loyqa. Qirg'oqdagi qumlarni silab erinchoqlik bilan oqadi. Ilgarilari chilla paytida ham suv mashina turgan yergacha chiqardi (D, 15).	loyqa	suv+sifat

6.	Suv ga egilib turgan jiyda barglari kumush kabi tovlanadi. Atrof sokinlik hukmida. Daryoning oqishi ham, oroldagi qalin daraxtzorning epkinda tebranishi ham ulug'vor (D, 16).	egilmoq	suv+ga+fe'l
7.	Nima qilishardi, suv sayozlashgach, qishloqqa borib sigirlar kimniki bo'lsa, olib chiqsin, bo'lmasa otib tashlaymiz, deb e'lon qilishadi (D,16).	sayozlashmoq	suv+fe'l
8.	Qayiq suv ni to'lqinlatib qirg'oq bo'ylab boradi. Davron ko'zini oroldan uzmaydi (D, 17).	to'lqinlatmoq	suv+ni+fe'l
9.	U so'zini tugatmay Zokirali yana qayta suv ga tushdi (D, 18).	tushmoq	suv+ga+fe'l
10.	— Namoyish qilish shart emas. Odamning fe'li, xatti-harakatidan, so'zlaridan bilinib turadi. Masalan, bir odam suv ga cho'kyapti, siz o'ylab o'tirmay qutqarishga tashlanasizmi? (D,23)	cho'kmoq	suv+ga+fe'l

Turg'un birikmalar tarkibi o'zgarmas bo'lib, ular doimiy ravishda bir xil modelda namoyon bo'ladi. *Suv* komponenti ishtirokidagi frazemalar va maqollar tarkibidagi birikuvlar turg'unlik, o'zgarmaslik, barqarorlik belgisiga ega bo'ladi. Bunda grammatik shakllar ham turg'unlik maqomida bo'ladi.

Frazemalar ikki va undan ortiq leksemalarning birikib, yaxlit ko'chma ma'noga xizmat qilishidir. Frazeologizmlarga bag'ishlangan tadqiqotlardasemantikxususiyatlaridantashqarixalqdunyoqarashini aks ettirishi, etnik belgilarni ifodalashiga alohida e'tibor berilgan. Turli mazmundagi frazemalarning lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilingan. Masalan, M.Sokolovazoonim komponentli frazeologizmlarni tadqiqi qilar ekan, lingvokulturologiyaning xususiyatlariga to'xtalib o'tadi. Lingvokulturologiyaning umumlashma xarakterdagi yo'nalish sifatida ta'kidlab, "til va madaniyat" muammolarini o'rganishda turli nuqtai nazarlarni, qarashlarni, yondashuvlarni birlashtirishini qayd etadi. V.fon Gumboldt boshchiligidagi bir guruh olimlarning til va madaniyat, til va tafakkur aloqasini, tilning ruhiyat bilan bog'liq jihatlarini ilmiy jihatdan asoslashda alohida o'rin tutishlarini qayd etgan. Frazeologik fondning dunyoni anglashda boshqa til birliklaridan farq qilishi, ham axborot berish, ham obrazlilik xususiyatlariga ega ekanligini qayd etdi. (Соколова 2015, 41)

Suvning madaniy kod sifatidagi xususiyati barqaror birikmalarda to'liq namoyon bo'ladi. Frazemalarda madaniy kod obrazli tafakkur fonida namoyon bo'ladi.

X.Jabborov monografiyasida suv leksemasi ishtirokidagi 32ta frazeologik birikma, 28ta maqol va hikmatli so'zlar izohlangan. Ilova sifatida suv ishtirok etgan 421ta maqol keltirilgan (Жабборов 2005, 152).

Suv frazeologik birikmalar tarkibida so'zlovchining fikrini ta'sirchan, obrazli tarzda yetkazishga xizmat qiladi. Maqolada *og'zining suvi kelmoq, suv sepgan, sirkasi suv ko'tarmaydigan, suv qilib ichmoq, suv qilmoq, suvga oqizmoq, suvga tashlamoq, suvga tushgan nondek bo'shashmoq, suvga tushsa, quruq chiqmoq, suv yuqmas, suvdan quruq chiqmoq, sirtiga suv yuqtirmaslik, suvga urib ketmoq, tagiga suv ketmoq, tushini suvga aytmoq, o'zini o'tga (ham), suvga (ham) urmoq, suvda cho'kmas, o'tda yonmas, suv kelsa simirmoq, tosh kelsa kemirmoq, suv yugurdi, suvi qochgan, suvni loyqalatmoq, qo'lini sovuq suvga urmoq, g'alvirni suvdan ko'tarmoq, suvini siqib ichmoq, suvini ichib yurmoq, og'ziga suvluq solib olmoq, suvdan holva yasamoq* frazemalari suv komponentining yadro sifatidagi mavqeyiga ko'ra tahlilga tortildi.

Suv komponentli frazemalarda quyidagi milliy-madaniy xususiyatlar aks etgan:

1. Biologik jarayon o'z ifodasini topgan. *Og'zining suvi kelmoq* frazemasini insonning tabiiy refleks bilan bog'liq holatini ifoda etadi. Bu ibora, asosan, och holdagi odamda taom yoki yegulik nomini eshitishi, ko'rishi bilan yuz beradigan fiziologik holatni aks ettiradi. Og'izda bezlar tomonidan ajratiladigan so'lakning paydo bo'lishiga ishora qiladi. *Og'zimning suvi kep ketdi. Iye, ana kabob!* (Xolmanova; Valiyeva; Muhammadiyeva 2022, 110)

Og'zining suv ochmoq – og'zi qurib qolmoq, chanqamoq. *Nordon anor yeyayotgan bolani ko'rib og'zi suv ochib ketgan surnaychining so'lagi to'lib qolgan surnayining uni o'chadi* (O'H, 41).

Og'zi ko'pirib maqtamoq iborasi ham tez yoki tinimsiz gapirish natijasida so'lakning ko'pirib og'izdan tushish holatni mubolag'ali tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Ko'pirish ham so'lakka asoslansada, ko'pirishga nisbatan suv yoki suvlanish so'zlari qo'llanmaydi.

Suv yugurdi nimaga (meva g'o'rasiga) pishishga yaqinlashib, maza kirib qolmoq: Atrof ko'm-ko'k. Daraxtlar quyuqlashgan. Oq o'rik g'o'rasiga suv yugurib, danagi qoraymoqda, gilolar qizarib yetilmoqda. I.Rahim. Ixlos (SHR).

Suvi qochgan – 1. Bir oz qota boshlagan. Kampir ...eski

dasturxon yozib, **suvi** qochgan ikkita nonni sindirib, o'rtaga jiyda to'kdi. A.Muxtor. Tug'ilish;

2. Yetilish davridan o'tgan, so'linqiragan (SHR). Abdulla Qahhor bu iboradan shaxsning ko'rinishini tasvirlashda foydalangan: *Xudo yorlaqag'an kun ozodliqning palovi, shunda ham Anvar kech kelib sovig'an oshni yer, uyda issiq non yopilmas, hamisha panjshanba kun yig'ilg'an non suvi qochib, taraqlab kelasi panjshanbag'acha kafolatni o'z ustiga olar edi* (AQ, 29). "Bordi-yu Latofatxon degani suvi qochib, shoxida mayiz bo'lgan kampsirsimon bir inson bo'lsa-chi?" A.Qahhor. Ko'k konvert (SHR).

Suvni loyqalatmoq kim biror masalani ataylab chalkashtirib, orada ishonchsizlik ixtilof keltirib chiqarishga harakat qilmoq: *Yana qaytib kelib, yana suvni loyqalata boshladi*. S.Anorboyev. Oqsoy (SHR).

Qo'lini sovuq suvga urmoq (O'TIL, III, 577) iborasi ham real voqelikka asoslangan. Suvning sovuqlik belgisi "qiyinchilik", "mashaqqat", "mehnat" semalarini ifodalaydi. Iboraning mazmuni qish kunlarida sovuq suvga qo'l urishning salbiy belgilari asosida shakllangan. Shu asosda sovuq suv "mashaqqatli mehnat" semasini ifodalashga muvofiqlashgan.

2. Shaxsning jismoniy faoliyati, to'siqlarni yengish qobiliyati namoyon bo'ladi: *Suv kelsa – simirmoq, tosh kelsa – kemirmoq* kim har qanday qiyinchilik-to'siqlarni bardosh berib yengib o'tmoq. Bu frazema ham shaxs faoliyatiga berilgan bahoni ifoda etadi. Ha, Valixon-chi, aylanay!.. Qo'ylarim deb suv kelsa – simiradi, tosh kelsa – kemiradi. S.Abduqahhor. Yangi uy (SHR).

Suvga tushsa – cho'kmaydi, o'tga tushsa yonmaydi. Qisqartirilgan shaklda: o'tda yonmaydi, suvda cho'kmaydi, deb ishlatiladi. Ibora har qanday og'ir sinovga ham bardosh berib, o'zligini saqlab qolmoq tushunchasini anglatadi. Varianti: o'tda kuymas, suvda cho'kmas. *Yo'q, bizning Egamberdi o'tda kuymas, suvda cho'kmas yigitcha*. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar (SHR).

O'zini o'tga (ham), suvga (ham) urmoq (O'TIL, III, 577) iborasi o't va suvning qarama-qarshi semantikasiga asoslangan. Ibora "hamma narsaga qo'l urmoq", "o'zini ayamaslik", "ko'p harakat qilish", "tinmaslik" semalari aks etgan. Umumlashgan holda "hamma joyga va narsaga" degan tushunchani anglatadi. Bu ibora mumtoz manbalarda ko'p uchraydi: *Bog'labon bir pora bo'zda beshu kam, Utqa oni tashlay olg'oy, suvga ham* (NR, 137). Bu jumladagi o't va suvning takrori umumlashgan ma'no ifodalagan.

G'alvirni suvdan ko'tarmoq (O'TIL, III, 577) iborasi ham

xalqning kundalik faoliyati, mehnat munosabatlari asosida yuzaga kelgan. G'alvir (f.< a. katta sim elak, g'alvir). Don elanadigan, siyrak to'rli katta elak. G'alvir qilmoq – g'alvir kabi teshik-teshik, ilma-teshik holga keltirmoq; g'alvirdan o'tkazmoq 1) g'alvirda elamoq; 2) sinovdan o'tkazmoq. G'alvirni suvdan ko'tarmoq – yakuniy natijani aniqlamoq (O'TIL, V, 432).

G'alvirni suvdan ko'tarmoq iborasi suv ustida bajarilgan mehnat mahsulidir. Quruvchilar suvdagi toshlarni saralash, qumni ajratish maqsadida g'alvirdan foydalanganlar. G'alvirda qolgan toshlar mehnat jarayonining natijasini ifoda etgan. Bugungi ibora mazmunidagi kunda amalga oshirilgan ishlar natijasini, yuzaga chiqishini ifodalash ana shu jarayonga asoslangan.

G'alvirdan o'tkazmoq – sinchiklab nazorat qilish, taftish qilish ma'nolarini bildiradi. G'alvir xalq turmush tarzida ko'p kuzatiladigan ashyo nomi sifatida maqollarda ham uchraydi: Sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga (O'TIL, V, 432).

Suvini ichib yurmoq– tirikchilik qilmoq. U (Tojiddin) suvchilikning suvini ichib yurgan odam. A.Abdukarimov, Cho'l burguti (O'TIL, III, 577). O'zbek tilida shu ma'nodagi nonini yemoq, nonini yeb yurmoq iborasi keng qo'llanadi. Suvini ichib yurmoq iborasi kam ishlatiladi.

3. Ruhiiy, psixologik jarayon o'z aksini topgan. Suvini siqib ichmoq – azoblash, ruhiy jihatdan azoblamoq, ezilishga, siqilishga sabab bo'lmoq. Og'ziga suvluq solib olmoq – jilovlab olmoq, bo'ysundirmoq. Ma'lumki, otga solingan suvluq uni oson bo'ysundurish imkonini beradi. Ot temir suvluqning ra'yiga qarab buriladi va harakatlanadi. Chavandoz suvliq orqali otni istalgan tomoniga yo'naltiradi, boshqaradi. O'zbek tili sohibi bu holatdan insonni izmiga solish, bo'ysundirish, aytganini qildirish holatlarini ta'sirchan ifodalashda foydalanadi.

Suv bo'lib oqmoq – nihoyatda bo'shashmoq. *Anvarning qarashidagi ma'noga tushungan Sultonaning yuragi suv bo'lib oqdi va hushsiz, hissiz, Anvar ko'zdan yo'qolg'uncha qarab qoldi...* (Қодирий 1994, 14).

Sovuqsuvquygandek–seskanmoq, kutilmagan xabarni eshitish natijasidagi ruhiy holatni bildiradi: *To'satdan uning ustidan bir chelak sovuq suv quyilganday bo'ldi-yu, a'zoyi badani muzlab, bo'shashib, boshi yostiqqa "shilq" etib tushdi* (YT, 85).

Tomog'idan suv o'tmaydi frazemasi ham shaxsning ruhiy holati bilan bog'liq. Frazemaning shakllanishiga qiltomoq kasalligi asos bo'lgan. *Qiltomoq s.t.* 1. Qizilo'ngachning yara yoki boshqa

sabab bilan torayib, ovqat o'tmay qolishidan iborat kasalliklarning umumiy nomi; rakning bir turi (O'TIL, V, 292). Kasallikdagi jismoniy holatning ruhiy holatga ko'chishi natijasida ko'chma ma'no asosidagi ibora yuzaga kelgan. Inson ruhiy xotirjam bo'lmasa, kimnidir kutsa, xavotir olsa, undagi bezovtalik biror narsa yeyishiga to'sqinlik qiladi. Bu frazema tarkibidagi suv "tanovul qila olmaslik" darajasidagi bezovtalikni kuchaytirishga xizmat qilgan.

4. Empirik bilim, tajriba aks etgan. *Sirkasi suv ko'tarmaydigan odam* gap ko'tarmaydigan, ta'bi nozik odam. *Sirka* kislotaning suvdagi eritmasi mevalarni konservalashda, ovqatga qo'shiladigan ziravor sifatida ishlatiladigan o'tkir hidli, achchiq-nordon mazali suyuqlik (uy sharoitida uzum, olma va sh.k. shirin mevalarning sharbatidan ham maxsus usulda tayyorlanadi). (O'TIL, III, 522). Kislotaning o'zini ishlatib bo'lmaydi, uning suvdagi eritmasi iste'molga yaroqli mahsulot sifatida ishlatiladi. Sirkani suvda eritish – tabiiy va amalga oshirish zarurat hisoblangan jarayon. Frazemaning asosida sirka kimyoviy elementining suvda eritilish xususiyati yotadi.

Suv sepgan – o'chirgan: Saboning salqin yeli bilan yong'inli boshimga suv sepgan yellarga salomlar yubordim. Qora yuragimning so'kilgan yaproqlarini nur iplari bilan yurmalagan to'lg'un oylarga ta'zimlar yo'lladim (Соколова 2015, 96). Suv sepgan frazemasi birikma bilan omonimlik hosil qiladi, ya'ni ushbu so'zlar erkin birikma tarzida ham qo'llanadi. Qayd etilgan matnda yellarning suv sepishi qahramonning yong'inli boshiga yo'naltirilgani uchun ham ko'chma ma'no ifodalab, barqaror birikmani yuzaga keltirilgan.

Suv tekin – juda arzon, deyarli tekin (O'TIL, 4, 54). *Boqijon bir vaqtlar qaysi bir qo'li egrilardan suv tekinga sotib olgan va gavdasiga qovushmagan eskigina qo'ng'ir-sariq tujurka kissalariga ikki qo'lini tiqib, katta xona sari oliftalarcha odim otdi.* Oybek. Oltin vodiydan shabadalar (SHR). Bu iboraning shakllanishiga suv miqdorining ko'pligi va muntazam ravishda uchrashi sababdir. Yer yuzining to'rtidan uch qismi suvlikdan iborat ekanligi, ariq, quduq, qor, yomg'ir, daryo, dengiz ko'rinishidagi suvliklarning ko'p uchrashi til sohibi ongida "arzon", "tekin" semasining shakllanishiga asos bo'lgan. Abdulla Oripovning "Bisyor bo'lsa bol ham beqadr, So'ngsiz bo'lsa rangsizdir kalom"... degan satrlari ham suv semantikasidagi "tekin", "arzon" semalarining yuzaga kelish omillarini ko'rsatadi. O'zbekiston o'z mahsuloti – paxtaning to'qson to'rt foizini xomashyo sifatida arzonga sotsa, undan olinadigan so'nggi mahsulotga nisbatan yuz karra kam haq olaveradi. Deyarli suv tekin! (O'H, 195).

5. Etnik qadriyatlar, urf-odat, an'analar mazmuni aks etgan.

Tushni suvga aytmoq (O'TIL, III, 577) frazemasi xalqning etnik qadriyatlarini ifoda etadi. Avvallari tushni suvga aytish odati bo'lgan. Yaxshi mazmunli tushlar amalga oshishi niyat qililib, yomon mazmunli tushlarning amalga oshmasligi, suvda oqib ketishi so'ralib, suvga murojaat qilingan. Keyinchalik til sohibi ongida bu jarayonga ishonchsiz munosabatda bo'lish, behuda urinish sifatida baholash shakllangan. Natijada iborada "xom xayol qilmoq", "amalga oshmaydigan ishni o'ylamoq", "noto'g'ri tasavvurga ega bo'lmoq" semalari yuzaga kelgan. Tushini suvga aytsin! Samarqand bizniki bo'lur! – dedi maydan badani qiziy boshlagan Ahmad Tanbal ovozi xiyol ko'tarib (YT, 85).

Samarqandni endi tushlaringda ko'ringlar! – Keyin tushlaringni suvga aytursanlar? (YT, 167).

Xulosa

Har bir guruhga oid frazema til sohibining narsa-hodisa, voqelikka bergan bahosi, kuzatishlari, kundalik tajribasi, lisoniy tafakkur darajasini namoyon qiladi.

Suvning madaniy kod sifatidagi funksiyasi xalq og'zaki ijodida, dunyoqarashida, mifologik obrazlarda, maqollarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Barqaror birikmalar ikki va undan ortiq leksemalarning semantikasiga asoslangan, ko'chma ma'noda yaxlitlik hosil qiluvchi til birliklaridir. Barqaror birikmalar bir so'zning boshqa so'zlar bilan aloqadorlikdagi semantikasiga asoslangani uchun ham borliqni ifodalashning o'ziga xos lisoniy vositasi sifatida baholanadi. Barqaror birikmalarda konseptning asosiy va muhim qirralarini umumlashtirib, jamlab, yaxlitlikda ko'rsatish imkoniyati mavjud.

Suv komponentli frazemalar fikrni ta'sirchan va obrazli ifodalashda ahamiyatlidir. Frazemalarda suvning madaniy kod sifatida belgilari aks etadi. Suv ishtirokidagi frazemalar shaxsning ruhiyati, harakat-holati, ijtimoiy faoliyatini ifodalagan. Suv komponentli frazemalar tarkibida xalq qadriyati, urf-odati, an'analariga oid tushunchalar ham ishtirok etib, suv leksemasining semantikasini ifodalashga xizmat qiladi. Frazemalarda suvning "oqish", "tozalik", "poklash", "ketkazish" semalari aks etgan.

Adabiyotlar

- Абышева, Е.М. (2008). Концептуальные инверсии: концепт "чудо": на материале русских и ирландских пословиц, поговорок и сказок: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук / Е.А. Абышева. – Тюмень.
- Апекова, Ж.Ш. (2009). О понятии "правда" в кабардинских поговорках /

- Ж.Ш. Апекова // Вестник Адыгейского государственного университета. Сер.: Филология и искусствоведение. – СПб.: АГУ, – Вып: 2 (45).
- Жданова, В.В. (2000). Пословицы и поговорки как источник изучения русского культурно-языкового сознания / В.В. Жданова // Русский язык как иностранный: Теория. Исследования. Практика. – СПб.: РГПУ им. А.И. Герцена.
- Жабборов, Х. (2005). Ўзбек тилида сув лексемасининг луғавий-маъновий хусусиятлари. – Қарши: Насаф.
- Hoshimov, O'. (2015). Dunyoning ishlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi.
- Пермяков, Г.Л. (1970). От поговорки до сказки: заметки по общей теории клише / Г.Л. Пермяков. – М., Наука.
- Пикалова, В.В. (2005). Этнокультурные нормы речевого поведения в паремиологических единицах английской и русской лингвокультур: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук / В.В. Пикалова. – М.
- Маҳмуд, В. (2007). Танланган асарлар. Мунаққид ҳақида сўз. – Тошкент.
- Holmanova, Z., Valiyeva, G., Muhammadiyeva, D. (2022). O'zbek tilidagi paremiyalar tadqiqi. – Toshkent: Mahalla va oila.
- Қодирий, А. (1994). Мехробдан чаён. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат.
- Соколова, М.В. (2015). Лингвокультурологическая специфика фразеологических единиц с компонентом-зоонимом в мирийском и финском языках. Дисс. ...канд. филол. наук – Йошкар-Ола.
- Ўзбек ва турк мақоллари, иборалари. (1998). – Тошкент.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (2006). 5 жилдли. 80.000дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. – Тошкент: Ўзбек миллий энциклопедияси.

Expression of national - cultural signs in phrases with a water component

Ma'suma Muminova¹

Abstract

In this article, folkloristic, artistic and linguistic views serve as a source for linguistic and cultural studies, phrases, proverbs and sayings with a water component represent the psychology and philosophy of the

¹ Muminova Ma'suma – Teacher of Shahrisabz State Pedagogical Institute.

E-mail: masumamuminova@gmail.com

ORCID-ID: 0009-0003-2111-0460

For reference: Mo'minova M. Expression of national - cultural signs in phrases with a water component. *Uzbekistan: language and culture. Linguistics*. 2024-2: 57-66.

people, preserve the traces of the people's life, not only the lifestyle, but also the past, traditions, and beliefs of the people. analyzed as a reducing unit.

Key words: *Linguistic, phraseological, phraseological combination, semantic, paremia, grammatical form, cultural code, phrase.*

References

- Abysheva, E.M. (2008). Konseptualnye inversi: the concept "chudo": na materiale russkikh i irlandskikh poslovits, povogrok i skazok: Autoref. disc. ... candy. Philol. Nauk / E.A.Abysheva. – Tyumen.
